

O`ZBEKISTONDA YOSHLAR TURIZMINING AHAMIYATI

Jo`rabekov Akobir

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

Turizm fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada O`zbekistonda yoshlar turizmining roli, mavjud imkoniyatlar, bu sohani rivojlantirish va bu boradagi takliflar haqida so`z boradi.

Kalit so`zlar: yoshlar turizmi, ekstremal turizm, sport turizmi, rafting, tog` chang`i sporti, restoranlar, "Tourist Police".

THE IMPORTANCE OF YOUTH TOURISM IN UZBEKISTAN

Abstract

This article discusses the role of youth tourism, existent opportunities, the development of this sector and suggestions in this regard.

Keywords: youth tourism, extreme tourism, sports tourism, rafting, mountain skiing sport, restaurants, "Tourist Police".

Bugungi kunda turizm dunyo miqyosida jadal rivojlanib borayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Sababi, qaysi bir mamlakatda turizm rivojlanarkan u mamlakatning nafaqat iqtisodiyotiga, ravnaqiga ta`sir etib qolmay balki mahalliy aholini ham yangi ish o`rinlari bilan ta`minlaydi. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko`ra, har 30 nafar sayyoh mamlakat turizm sohasida bitta, unga turdosh tizimlarda esa ikkita yangi ish o`rnini yaratishga turtki beradi. O`zbekiston deganda ko`pchilik xorijiy sayyohlarning ko`z o`ngida tarixiy, sir-sinaotlarga, mazzali o`zgacha taomlarga boy mamlakat gavdalanishi tabiiy hol. Ammo hozirda O`zbekistonda turizmning barcha turlari mavjud va yetarlicha rivojlangan. Ayni damda eng ko`p e`tibor markazida bo`lyotganlaridan biri bu yoshlar turizmidir.

Yoshlar turizmi-bu mustaqil sayohat qiluvchi 15 yoshdan 29 yoshgacha bo`lgan sayyohlar amalga oshiradigan turizm sohasi hisoblanadi. O`zbekistonda Yoshlar turizmini rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqilgan va shu asosda ishlangan loyihalarni amalga oshirish natijasida 2020-2025 yillarda mamlakatda yoshlar turizmini rivojlantirishga oid maqsadli ko`rsatkichlar belgilab olingan. Jumladan, 2023-yilga xorijiy yosh sayyohlar sonini 3.3 millionga, ichki turizm bo`yicha yosh sayyohlar tashrifi sonini esa 13.6 millionga yetkazish, 2023 yilda 60 ta xalqaro darajadagi tadbir

o`tkazish rejalashtirilgan. Yosh sayyohlarning O`zbekistonni tanlashlari uchun ko`plab afzallik tomonlari mavjud. Bular:

- *hamyonbop narxlar
 - *o`tovli manzilgohlar va yotoqxonalar
 - *tun-u kun ishlaydigan barlar va restoranlar
 - *ajoyib elektron musiqa festivallari
 - *ekstremal turlar
 - *tog` - chang`i kurortlari
 - *xavfsizlik
- va boshqalar.

Ayni paytda yoshlarni qiziqishlari va intilishlaridan kelib chiqqan holda shartli ravishda bir nechta guruhlarga ajratishimiz mumkin. Masalan, sportga ishqibozlari, ekstremal holatlarga, sarguzasht yoki turli bazm va uchrashuvlarga qiziquvchi yoshlar. Shunga qaramay O`zbekiston ham bularning barchasi uchun yetarlicha xizmatlar taqdim eta oladi.

Ekstremal-sarguzasht sevarlar-bu turdagi sayyohlar garchan qo`rqinchli va xavfli bo`lishiga qaramay yirik qoyalar orasidan o`tgan tez oqar suvlarda qayiqda suzishni yoki odam izi qadami yetmagan g`orlarga tashrif buyurishni xush ko`ruvchilardir. Bu kabi sayyohlar uchun Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumani G`ilon qishlog`ida „Eco Rafting Tour” MCHJ tomonidan ekstremal turizm turi hisoblangan rafting xizmati birinchi bosqichi yo`lga qo`yilgan. Bugungi kunda rafting majmuasida umumiy ovqatlanish, basseyn, tog`li hududbo`ylab sayr qilish hamda rafting qayiqlarida hamda rafting qayiqlarida ekstremal sayohat qilish yo`lga qo`yilgan. Mamlakat yana ekstremal turizmga qiziquvchi sayyohlarga qo`shimcha tarzda Chotqol, Piskom, Ugam, Sirdaryo singari boshqa ko`plab joylarni ham taklif etadi.

Sport ishqibozlari-sport turizmini amalga oshiruvchi yoshlar ikki toifali bo`ladi bular: sportchilar va shunchaki xavaskorlar. Ular asosan tog`li chekka hududlarni afzal ko`rishadi. Zero turizmni vujudga keltiruvchi asosiy omillardan biri sayyohlar o`z mamlakatida mavjud bo`lmagan joylarni ko`rishga bo`lgan qiziqishi hisoblanar ekan, O`zbekiston aynan shunday davlat yoshlari uchun tog`-chang`i kurortlarini yaratgan. Xususan, Amirsoy dam olish maskani ayni yoshlarbop qulayliklarga to`la joydir. Bu yerda vaqti-vaqti bilan turli sport musobaqalari ham tashkil etilib turadi. Bu yerga tashrif buyurganlar nafaqat chang`i, chana uchishi mumkin balki bu yerdagi ajoyib restoranlarning o`zgacha ta`mga ega bo`lgan taomlaridan bahramand bo`lishlari ham mumkin. Bundan tashqari, Amirsoyda Avto festival, Polo o`yini tashkil etilib turiladi. Avto festivalda boshqa mamlakat ishtirokchilari ham qatnashgan holda o`z avtomobillarida turli xil namoyishlar

ko`rsatadi. Amirsoy bu O`zbekistondagi yagona tog` kurorti emas aksincha bu kabi orombaxsh joylar soni O`zbekistonda bir talay, masalan, Bildirsoy, Bo`stonliq ham shular sirasiga kiradi. Sayohatchilarning xavfsizligini ta`minlash haqidagi Xartiya 1985-yil Butunjahon turizm tashkilotining Bosh assambleyasining 6-sessiyasida qabul qilingan. Xartiya tarkibi 9 ta modda va turist kodeksi, bu kodeks ham 9 ta moddadan iborat. Xartiyaning 6-moddasida sayyohlarning sog`lig`i va xavfsizligini ta`minlashda, ularning buyumlarining saqlanishi har bir davlat hududida erkin harakat qilishida ma`lum bir talablar belgilangan. Mana shularni inobatga olgan holda Amirsoy singari hududlarda yil davomida „Tourist Police“ xizmati va tez yordam xizmati sayyohlarga beminnat yordam ko`rsatadi. Albatta bularning barchasi mamlakatga tashrif buyuruvchi xorijiy va mahalliy sayyohlarning xavfsizligini ta`minlash uchundir. Garchi xorijiy sayyohlar mahalliy tilni bilishmasada bu ularga muammo tug`dirmaydi chunki „Tourist Police“ xodimlari o`zbek, rus, ingliz va boshqa tillarni ham bilishadi va yordamga muhtoj har kimga yordam qo`lini cho`za oladi.

O`zbekistonda yoshlar turizmini yanada rivojlantirish uchun mamlakat bo`ylab transport xizmatlarida doimiy chegirmalar qilishlik, O`zbekiston yoshlari bilan qiziqishi o`xshash xorijlik yoshlar o`rtasida do`stona uchrashuvlar tashkil etish kerak. Shuningdek, har bir sayyoh o`z yurtiga qaytishidan oldin ularga mamlakatni eslatib turuvchi esdalik sovg`alar yoki milliy liboslarimizdan sovg`a qilish orqali ularni yanada xursand qilgan va O`zbekistonning aholisi naqadar mehmondo`st xalq ekanligini ko`rsatishimiz mumkin. Bir so`z bilan aytganda O`zbekiston sayyohat qilish uchun eng tinch, yilda 4 mavsumga ega, sifatli xizmat ko`rsata oladigan „mehmonlarning xavfsizligini birinchi o`ringa qo`yadigan mehmondo`st mamlakatlardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. www.xs.uz
2. www.uzreport.news
3. uzbekistan.travel
4. uzbektourism.uz